“IJTIMOIY DAVLAT” TUSHUNCHASI (TARIXIY TAHLIL)

Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19684503

Annotatsiya. *Muallif maqolada ijtimoiy davlat omili, o‘zida fuqarolarning munosib hayoti va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlash kabi g‘oyalarni qamrab olgan, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy tashkil etish shakli sifatida paydo bo‘lmoqda. Unda aholining ijtimoiy ta’minot va davlat ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqishga sarflanadigan mablag‘larning keskin ortishi kuzatilishi bilan, jamiyat va davlatning mas’uliyati ham tobora oshib borayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy davlat, bozor iqtisodiyoti, doktrina, siyosat, funksiya, globallashuv, konsepsiya, sivilizasiya, Yevropa.*

Аннотация. *В статье автора фактор социального государства предстает как форма социально-экономической организации общества, включающая в себя такие идеи, как обеспечение достойной жизни и социально-правовой защиты граждан. Это показывает, что резко возросло социальное благосостояние населения и средства, расходуемые на разработку государственных социальных программ, а также повышается ответственность общества и государства.*

Ключевые слова*. Социальное государство, рыночная экономика, доктрина, политика, функция, глобализация, концепция, цивилизация, Европа.*

Abstract. *In the author's article, the social state factor appears as a form of socio-economic organization of society, which includes such ideas as ensuring a decent life and social-legal protection of citizens. It shows that the social welfare of the population and the funds spent on the development of state social programs have increased sharply, and the responsibility of the society and the state is also increasing.*

Keywords: *Social state, market economy, doctrine, policy, function, globalization, concept, civilization, Europe.*

Kirish. Tarixdan ma’lumki davlat bu kuch ishlatishning yagona legitim institutidir[1]. Lekin davlatning vazifalari faqat normalarni o‘rnatish, qonunlar qabul qilish va ularni kuch asosida amalga oshirishni ta’minlash bilan cheklanmaydi.

Davlat mavjudligining asosiy mantig‘i – bu ijtimoiy manbalar (ne’matni) yaratish (ingliz tizida “public good”), ya’ni bozor iqtisodiyoti yoki boshqa biror institut bajarmaydigan funksiyalarni bajarishdir. Davlatning vazifasi, avvalo, ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishdir.

An’anaga ko‘ra, bu xavfsizlik funksiyalari, ya’ni polisiya va armiya hisoblanadi. Shunday qilib, davlat boshqaruvi, ichki xavfsizlik, tashqi xavfsizlik davlatning an’anaviy funksiyalari hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Lorens fon Shtayn davlatning bosh g‘oyasi tenglik va erkinlikni tiklash, barcha kam ta’minlanganlarni himoya qilish deb hisoblagan; davlat barcha a’zolarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirishi kerak, deya

ta’kidlagan [7].

Ijtimoiy davlatchilik g‘oyalarining ildizlari utopik sosialistlar va utilitarizmdan (I. Bentam, E. Chedvik) kelib chiqadi, ular har qanday qonunchilikni “ko‘pchilik uchun katta baxt yaratish” tamoyili nuqtai nazaridan baholash zarurligi haqidagi tezisni ilgari surdilar. Shuningdek, nafaqat zaiflarga yordam berish funksiyasini bajaradigan, balki fuqarolarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan davlat faoliyati haqida yozishgan. Masalan, **E.Chedvik** investisiyalar uchun odamlar asosiy kapital hisoblanadi va ularning farovonligini maksimal darajada oshirish milliy boylikni maksimal darajada oshirishga olib keladi, deb hisoblagan. U shaxsning butun jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi maqsadida shart-sharoitlarni ta’minlash uchun ijtimoiy sohaga davlat aralashuvi tizimini yaratish kerak, degan xulosaga keldi [8]. Bu g‘oyalar oxir-oqibat XIX–XX asrlarda ijtimoiy siyosatning rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda “ijtimoiy davlat” tushunchasining tarixiy shakllanishi va evolyutsiyasini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tizimli-strukturaviy hamda konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, klassik va zamonaviy siyosiy-huquqiy manbalarni o‘rganish asosida kontent-tahlil usuli qo‘llanilib, ijtimoiy davlatga oid nazariy yondashuvlar va modellarning o‘zaro farqlari ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. “Ijtimoiy davlat” nima degani, avvalambor, bu barcha ijobiy va salbiy tomonlariga ega bo‘lgan tarixiy-siyosiy ta’limotdir. Ushbu ta’limot uch shaklda, uch uslubda mavjud bo‘lgan g‘oyalar yig‘indisini jamlaydi.

Dastlabkisi, ma’lum bir bilimlar tizimi, tushunchasi, nazariyasi va boshqalarni qamrab olsa, ikkinchisi – bu siyosiy loyihadir. Ijtimoiy davlat siyosiy loyiha sifatida imperativ bilimlarning butun tizimini qamrab oladi. “Karfagenni yo‘q qilish zarur”! Bu jumlada savol, aslida, bu hukmning haqiqati yoki yolg‘onligi haqida emas, balki qabul qilingan iroda haqidadir. Shunga ko‘ra, nazariy komponentning roli keskin zaiflashadi. Aslida, nazariya ish uchun alohida pozisiyasiga qo‘yiladi. Ijtimoiy hayotimizda siyosiy irodaga ishonish juda qiyin, ammo shunga qaramay zarur. Shuning bilan birga, u muayyan qadriyatlar majmuini ham tashkil etadi.

Bitta siyosiy ta’limot emas, balki ijtimoiy davlat haqidagi bir xil g‘oyaga ega ko‘plab milliy siyosiy doktrinalar mavjud. Bundan tashqari, ilmiy ta’limotlardan farqli o‘laroq, ushbu ta’limotning ilmiy nazariyalari, qoida tariqasida, nazariy jihatdan malakali bo‘lmagan, ammo siyosiy vakolatga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi. Shunga ko‘ra, boshqa baholash mezonlari va yondashuvlari ham mavjud.

Ushbu ko‘plab tarixiy-siyosiy ta’limotlar va ijtimoiy davlat modellarida

ma’lum invariantlar mavjud. Bu ichki va tashqi siyosat bilan bevosita bog‘liq. Ichki siyosat, uning asosiy vazifalari haqida. *Birinchi funksiya*, albatta, xavfsizlikning asosi sifatida mamlakat ichidagi siyosiy muvozanat, aniqrog‘i, turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida muvozanatni saqlash, deyish mumkin. Shuning uchun ham ijtimoiy davlat tushunchasi dastavval burjua mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Bu muvozanat katta darajada ikki tomon o‘rtasidagi raqobat orqali ta’minlanadi.

Ikkinchi funksiya (bu ko‘plab qonun ijodkorlari tomonidan konstitusion norma sifatida talqin etiladigan) klapan vazifasini o‘tab beradigan ijtimoiy davlatdir. Ya’ni, bu keraksiz ijtimoiy energiya chiqishi mumkin bo‘lgan majoziy ma’nodagi hushtakka qiyoslanadi.

Uchinchi funksiya - bu jamiyat uchun muhim omil hisoblangan ijtimoiy istiqbol bo‘lib, usiz jamiyatning o‘zi depressiyaga tushib qoladi. Uning yo‘qligi insonlarni ijtimoiy qadriyatlardan uzoqlashtiradi, mafkurasini yemiradi. Ijtimoiy istiqbol – bu ertangi kunga kirib borish imkoniyati, bu ijtimoiy safarbarlik uchun imkoniyati. Bu bugun o‘zingizni ertangi kunda tasavvur qilish qobiliyatidir.

Ijtimoiy davlat g‘oyasi dastlab Yevropada vujudga kela boshladi. Bu g‘oyaning aynan konstitutsiyaviy maqom olishiga turli omillarlar bilan bir qatorda, globallashuv va u bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy stratifikatsiyaning kuchaya borishi ta’sir qildi. Turli jabhalarda ishlash qobiliyati tufayli bu kuch muvozanati juda jiddiy to‘siqlarga ham uchradi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi nafaqat mamlakat ichki siyosiy jarayonlari, balki tashqi faoliyat amaliyoti bilan ham bog‘landi.

Huquqiy adabiyotlarda ijtimoiy davlat g‘oyasi borasida asosan uchta yondashuv shakllangan.

Birinchi qarash, ijtimoiy davlat jamiyatning mavjudligi uchun javobgar bo‘lgan davlat ekanligi bilan bog‘liq. Bu davlat paternalizmi deb ataladigan tushunchadir.

Ikkinchi pozisiya shuni anglatadiki, ijtimoiy davlat shaxsning boshqa odamlar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini o‘z ichiga oladi va davlatning o‘zi buni eslatib turishi va g‘amxo‘rlik qilishi lozim.

Uchinchi qarash, qisman integral shaklda bo‘lib, Yevropa mamlakatlarida eng keng tarqalgan. Bu ijtimoiy davlat jamiyatning zaif tabaqalariga yordam beradigan va jamiyatning, birinchi navbatda, iqtisodiy farovonlikning taqsimlanishiga adolat ruhida ta’sir ko‘rsatishga intiladigan tashkilot ekanligi bilan izohlanadi. Birinchi va ikkinchi pozisiyalar elementlarining bunday talqini ijtimoiy davlat kuchlilarga g‘amxo‘rlik qilmasligi kerak degan fikrni to‘liq takrorlamaydi. Bu kuchlilar o‘zlari va oilalari g‘amxo‘rligini davlat zimmasiga yuklamasligi zarurligidan kelib chiqadi[2].

Xalqaro munosabatlarda “ijtimoiy davlat” tushunchasi davlatning murakkab

muhim belgisi sifatida tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy davlat tushunchasi ham an’anaviy liberal, ham marksistik qarashlardan sifat jihatidan farq qiladi. Ijtimoiy davlat demokratik huquqiy davlatning (uning klassik, liberal variantida) tub kamchiliklariga, shuningdek, davlat sosializmining hammani moddiy ta’minlashga bo‘lgan muvaffaqiyatsiz urinishiga nafaqat nazariy, balki amaliy, konstruktiv javob beradi[3]. Erkinlik, tenglik va adolat haqidagi qarashlarda ijtimoiy davlatchilik konsyepsiyasi sivilizatsiya taraqqiyotining yangi bosqichida liberalizm va sosializm o‘rtasidagi ziddiyatni hal qiladi[4].

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi birinchi marta ma’lum tarixiy-huquqiy ma’noda XIX asr oxirida Germaniyada paydo boldi. U asosan Gegel falsafasi, fransuz sosialistik ta’limotlari ta’sirida hamda kapitalizm va sinfiy kurash rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish natijasida shakllandi. Davlatning ijtimoiy funksiyalari rolining o‘sishi shu qadar aniq bo‘lganida, davlatning ijtimoiy mohiyati nazariyalari va davlatchilik rivojlanishining ijtimoiy regulyatorlari yetarli emasligi sababli, paydo bo‘lgan yangi sifatni tuzatish zarurati paydo bo‘ldi. 1850 yilda **Lorens fon Shteyn** tomonidan fanga kiritilgan "ijtimoiy davlat" tushunchasi ana shunday chaqiriqlarga javob sifatida paydo bo‘ldi[5].

Lorens fon Shtaynning ijtimoiy davlat haqidagi ta’rifi davlat funksiyalarini yangicha tushunish uchun asos bo‘lgan bir qator fundamental qoidalarni o‘z ichiga olgan. Uning ta’kidlashicha, ijtimoiy davlat o‘z kuchi orqali barcha turli xil ijtimoiy tabaqalar, alohida shaxslar uchun huquqlarda mutlaq tenglikni saqlashga majburdir. U o‘zining barcha fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishga majburdir, chunki pirovardida birining rivojlanishi boshqasining rivojlanishining sharti bo‘lib, ijtimoiy davlat ham shu asosda shakllana boradi[6].

Bu ta’rifda muallif davlatga sinfiy kurash olib boriladigan maydon sifatidagi sosiologik yondashuvni yengib chiqdi. U ijtimoiy davlatning atributlaridan biri sifatida ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar, barcha odamlarning (individlarning) tengligini ajratib ko‘rsatdi, qabul qilingan “davlat – jamiyat” konsepsiyasi o‘rniga “shaxs – davlat” asosiy dixotomiyasini yaratdi hamda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni belgilab berish davlatning asosiy maqsadi ekanligiga urg‘u berdi.

Djon Rey o‘zining “Davlat sosializmi va ijtimoiy islohoti” maqolasida shunday yozgan edi: *“Adolatli davlat ijtimoiy islohotlar bilan shug‘ullanishi, ... har bir insonning huquqi bo‘lgan normal, munosib hayotning asoslarini maksimal darajada himoya qilishi kerak. Davlat insonning munosib hayot kechirishi, taqdirini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratib berishi lozim*” [9]. Bunday g‘oyalar so‘l, sosialistik harakat vakillarining asarlarida alohida qat’iyat bilan yangragan. Demak, **F.Engels** 1845-yilda Elberfelda qilgan nutqida umumiy ta’limni *“bechora*

birodarlarimizga nisbatan adolatli harakat qilishi lozim, chunki har bir shaxs o‘z qobiliyatini to‘liq rivojlantirish huquqiga ega”[10], deya ta’kidlaydi.

Shunisi e’tiborga loyiq-ki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida inson huquqlari va erkinliklari nazariyasi tarixiy rivojida uning yangi “pozitivizm” tushunchasi ilgari surildi, ya’ni davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni ta’minlash, “ijtimoiy tengsizliklar”ni tenglashtirish vazifasi asosida qurila boshladi. XIX asr oxiridagi yangi fransuz liberalizmi vakili **Buje**ning pozisiyasi alohida ajralib turadi, ya’ni erkinlik bu kuchlilar o‘z kuchi bilan xohlagan narsani qiladigan davlat emas; bu avvalo jamiyat hammaning erkinligini saqlab qolish uchun ba’zilarning erkinligini ushlab turadigan adolat holatidir. O‘z navbatida, XX asr boshidagi ingliz liberalisti Askvit davlatdan nafaqat erkinlikning rivojlanishi yo‘lidagi huquqiy to‘siqlarni bartaraf etish, balki erkinlikning eng yaxshi namoyon bo‘lishi uchun moddiy imkoniyatlarga erishish talab qilinishini ta’kidladi: uy-joy bilan ta’minlash, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqalar.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar masalasi ijtimoiy fikrning turli oqimlari vakillari o‘rtasidagi munozaralar markazida bo‘lgani holda, o‘rnatilgan burjua jamiyatining eng muhim tamoyillari – erkinlik va tenglikka ta’sir qildi. Ularning nisbatiga qaratilgan ikkita yondashuv shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рогов С.М. Стенограмма выступления на научно-экспертном совете при Председателе Совета Федерации Федерального Собрания Российской Федерации // Россия как социальное государство: конституционная модель и реальность: Сборник материалов / Под ред. д.ю.н., проф. Е.И. Колюшина, к.и.н. доцента А.А. Нелюбина М.: СФ ФС РФ, 2007 г. -С. 16.
2. Кочеткова Л.Н. Социальное государство: цели и функции // Социально-гуманитарные знания. 2008. № 3. -С. 69-70.
3. Общая теория прав человека. / под ред. д.и.н. Е.Л. Лукашини, - М,, 1996.
4. Бычек Т.В. Политико-правовой режим социального государства: вопросы теории и практики в Российской Федерации: дисс... канд. юрид. наук, Краснодар, 2007. -С. 47.
5. Эволюции теории и практики «государства благосостояния» в 30-е годы. – М., -С. 54.
6. Лоренца фон Штенпа считают родоначальником теории социального государства, хотя еще Т. Джефферсон, автор проекта Декларации независимости США 1776 года.
7. Валлерстайн И. Анализ мировых систем и ситуация в современном мире. СПб.: Университетская книга, 2000.
8. Концепция «государства благосостояния». - М., 1988. - С. 23-24.
9. "Contemporary Socialism" by John Rae // https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.e714366a-646b4aa6-da9d31fe-74722d776562/https/www.overdrive.com/media/5189109/contemporary-socialism
10. Фридрих Энгельс “Эльберфельдские речи” // http://www.agitclub.ru/front/mar/bm02.htm